

## MAKTAB DIRKTOR O‘RINBOSARLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Xamidova Komila Maxmudovna*  
**+998997855841**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktab faoliyada asosiy funksional vazifalarni bajaruvchi direktor o‘rinbosarlari ularning kasbiy vazifa va kompetensiyasi atroflicha ko‘rib chiqilgan va ushbu institutsional tizim faoliyatini takomillashtirish va isloh qilishga qaratilgan fikrlar bildirilgan.

**Annotation.** This article examines in detail the deputy directors performing the main functional duties in the school's activities, their job descriptions, professional duties, and competencies, and expresses opinions aimed at improving and reforming the activities of this institutional system.

**Аннотация.** В данной статье подробно рассматриваются должностные инструкции, профессиональные обязанности и компетенции заместителей директоров, выполняющих основные функциональные обязанности в деятельности школы, и высказываются мнения, направленные на совершенствование и реформирование деятельности данной институциональной системы.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv, kadrlar tatinlash mexanizmi,elektron hukumat,raqamli texnologiyalar

**Keywords:** management, personnel selection mechanism, e-government, digital technologies

**Ключевые слова:** управление, механизм распределения кадров, электронное правительство, цифровые технологии

### KIRISH

Rahbar xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni takomillashtirish har qanday davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish va ta’limni mustahkamlashning muhim shartidir. Yuqori malakali pedagog xodimlar jamoasini shakllantirish muammosi xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlar oldida turgan muammolaridan biridir. Rahbar ilmiy mezonlarini ishlab chiqish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni tahlil qilish, pedagog xodimlarni joy-joyiga qo‘yish ishlari samarali texnologiyalarni shakllantirish masalalarini yechishni taqazo etadi.

Jamiyatning ilg‘or ta’limga, maktab direktorlarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyoji rahbar (keyingi o‘rinlarda maktab direktori)dan boshqaruv, iqtisodiy, marketing, huquqiy bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi. Ijtimoiy

iqtisodiy o‘zgarishlar maktab direktorlaridan bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor talabini o‘rganishni, ta’lim xizmatlarining marketingini tahlil etishni talab etadi.

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish masalasi ko‘tarildi<sup>1</sup>

### ADABIYOTLAR SHARHI VA MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Izlanish natijasida olingan ma’lumotlar asosida maktab menejmenti sohasining bir qismi sanalgan direktor o‘rinbosarlari faoliyati va uning samaradorligini oshirishdagi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, qonunchilik bazasini takomillashtirish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Djurayev P.X., Turg‘unov S.T<sup>2</sup>, Axmedova N<sup>3</sup>, Tajiboyeva D<sup>4</sup> kabi olimlar ta’lim muassasasi rahbarlarining bilimi, ko‘nikmalari va malakalarini baholashni alohida ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadi. Direktorning pedagogika sohasidagi bilimi, ijtimoiy-me’yoriy talablarni bilishi, bo‘lajak mutaxassis ta’lim muassasasini boshqarish nazariyasiga ega bo‘lish yo‘llari atroflicha o‘rganilgan. Ushbu olimlar ta’lim tizimida rahbarlarga qo‘yiladigan talablar va boshqaruv jarayonlarini hamda pedagog xodimlarning ijtimoiy-psixologik jarayonlarini o‘rganishgan, rahbarlarni tanlash va tayinlash mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha fikr yuritilmagan. Chet-el olimlari S.Koshevenko<sup>5</sup>, S.BSilchenkova<sup>6</sup>, James H. Stronge<sup>7</sup> ta’lim tizimida rahbarlarga qo‘yiladigan talablar va boshqaruv jarayonlarini hamda pedagog xodimlarni ijtimoiy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 йил 8 январдаги “2022 — 2026 yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60- son Farmoni

<sup>2</sup> Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. - Т.: "Voris-Nashriyot", 2006. - 25-бет.

<sup>3</sup> Ахмедова Н. Умумий ўрта таълим мактаблари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигини ошириш. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2017 - 16 б.

<sup>4</sup> Тожибоева Д. - Самарадорлик ва унга назарий жиҳатдан классик ва неоклассик ёндашув. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2017 йил

<sup>6</sup> Сильченкова С.В., Кошевенко С.В. Влияние уровня информационной культуры образовательного менеджера на показатели эффективности его деятельности. / “Управление экономическими системами”: электронный научный журнал. 2016. № 12 (94). С. 35., Россия.

<sup>7</sup> James H. Stronge, Principal Evaluation: Standards, Rubrics, and Tools for Effective Performance, ISBN: 978-1-4166-1527-9, 2013.

psixologik jarayonlarini o'rganishgan, rahbarlarni tanlash va tayinlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha fikr yuritilgan.

Boshqaruv tushunchasi tor ma'noda biror-bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarining foyda keltirishi, samara berishi, faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayonning borishiga bog'liq bo'ladi

Boshqaruvning asosini obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qonunlarga asoslanuvchi huquqiy ilmiylik tashkil etadi. Bu qonunlarni o'rganish va ularning aniq vaziyatlarda namoyon bo'lishini hisobga olgan holda xo'jalik rahbarlari respublika iqtisodiyotini boshqarishning strategiya va taktikasini belgilaydilar.

Uning amalga oshirilishi turli sohalarda olib boriladigan islohotlarga va boshqariladigan vazifalarga nechog'lik bog'liq bo'ladi.

*Ijtimoiy siyosiy sohada:*

- ma'muriy-buyruqbozlik, avtoritar tuzum mexanizmidan va tuzilmalaridan qutulish.

*Ijtimoiy-iqtisodiy sohada:*

- iqtisodiy faoliyatga erkinlik berish;
- ko'p tarmoqli iqtisodiyotga hamda raqamli tizimga o'tish va boshqalar.

*Ma'naviy sohada:*

- xodimlarning kreativlik, aqliy va emotsional intellekt darajalarini rivojlantirish.

*Xalqaro munosabatlar sohasida:*

- jahon hamjamiyatiga kirib borish va teng huquqli hamkorlikka yo'l ochish. Bozor munosabatlariga o'tish ishlab chiqarish va bozorning samarali o'zaro ta'sirini, davlat boshqaruvi va korxonalarining o'z-o'zini boshqarishning mutanosib nisbatda bo'lishini ta'minlovchi takomillashgan iqtisodiy mexanizmini yaratishga yo'naltirilgandir.

Respublikamizda ham kadrlar bo'shlig'ini to'ldirish, shu jumladan, umumta'lim maktablarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish obyektiv zaruratdir. Ushbu masalalarni hal qilish mexanizmlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va ushbu ishning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi. Maktab ma'muriyati bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p funksiyalar direktordan o'rinbosarlarga qadar puxta o'ylangan vakolatlarni berishni talab qiladi. Bunga muvofiq optimal boshqaruv tarkibi zamonaviy sharoitlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

So'nggi yillarda maktab ta'limi sifatini oshirish borasida, xususan, tizimdagi rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bugungi kunda Qonunchilik palatasi tomonidan

**(9th international scientific and practical conference)**

2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "Ta'lim to'g'risidagi qonun"<sup>8</sup> sohaga oid asosiy qonun hujjati sanaladi. Qolgan normativ-huquqiy hujjatlar aynan shu hujjatga mos kelishi belgilangan.

### NATIJALAR VA MUXOKAMA

Yetakchilik modeli o'rnini maktab yetakchiligining mohiyatini anglashning boshqa modeli - yetakchilik modeli egallaydi. Bunda direktor nafaqat maktabni rivojlantirish uchun o'quv jarayonining boshqa subyektlari bilan mas'uliyatni taqsimlaydi, balki qaror qabul qilishda ularga vakolat va ma'lum darajada erkinlik beradi. Shunday qilib, yetakchilik faqat yetakchilik yoki boshqaruvning ma'lum bir turi emas<sup>9</sup>, ma'ruza mualliflari jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga ishora qiladilar. Maktab boshqaruvi tizimli ravishda amalga oshiriladigan murakkab jarayon sanaladi.

Mazkur jarayonlarni tashkil etishda maktab administratsiyasi asosiy o'rin egallaydi. Bu borada bosh bo'g'in sifatida maktab direktori va uning turli masalalarda asosiy ko'makchilari sanalgan direktor o'rinbosarlari egallaydi. Bugungi kunda maktab ta'limi isloh qilinayotgan sharoitda mavjud boshqaruv tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi, bu borada yirik qadam sifatida qaraladi.

Maktabni boshqarish modeli deganda ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq munosabatlar konfiguratsiyasi tushuniladi. Bir tomondan, qaror qabul qilish jarayoni maktabning o'zida qanday tashkil etilganligini ko'rib chiqamiz: bu jarayonda qanday tuzilmalar, agentlar va ta'lim jarayonining sub'ektlari va qanday sharoitlarda ishtirok etishi mumkin. Boshqa tomondan, munosabatlar konfiguratsiyasining muhim elementi tashqi muhit, xususan, direktorlar faoliyati va maktab faoliyatini tuzadigan nazorat organlaridir. Bunday holda, biz direktorni boshqaruv modelining elementi sifatida qiziqiramiz, u tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga qodir, o'zaro ta'sirning barcha agentlari manfaatlari muvozanatini saqlaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz uning tashqi muhit impulslarini maktabga qanday o'tkazishini va maktab muammolarini hal qilish uchun tashqi muhit bilan qanday munosabatda bo'lishini baholaymiz.

### XULOSA

Maktab boshqaruvi tizimli ravishda amalga oshiriladigan murakkab jarayon sanaladi. Mazkur jarayonlarni tashkil etishda maktab administratsiyasi asosiy o'rin egallaydi. Bu borada bosh bo'g'in sifatida maktab direktori va uning turli masalalarda asosiy ko'makchilari sanalgan direktor o'rinbosarlari egallaydi. Bugungi kunda maktab ta'limi isloh qilinayotgan sharoitda mavjud boshqaruv tizimidagi

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RBQ-637-son. Qarang: <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>9</sup> <http://vo.hse.ru>

kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Bu borada yirik qadam sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 17-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuritilayotgan o'quv-pedagogik hujjatlarni maqbullashtirish to'g'risidagi" 163-sonli buyrug'ini keltirib o'tish mumkin. U bilan shu kunga qadar maktablarda yuritib kelingan 6 dan ortiq o'quv-pedagogik hujjatlar soni elektron tartibga yuritilshi amalga oshirilmoqda.

Endilikda soha xodimlari asosiy e'tibor va vaqtlarini "qog'ozbozlik" yoki hisobotga emas, ta'lim sifatini oshirishga qaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 yanvardagi
2. "2022 — 2026 yillarga mo'jallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60- son Farmoni
3. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. - Т.: "Voris-Nashriyot", 2006. - 25-бет.
4. Ахмедова Н. Умумий ўрта таълим мактаблари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигини ошириш. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2017 - 16 б.
5. Тожибоева Д. - Самарадорлик ва унга назарий жиҳатдан классик ва неоклассик ёндашув. // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2017 йил
6. Сильченкова С.В., Кошевенко С.В. Влияние уровня информационной культуры образовательного менеджера на показатели эффективности его деятельности. / "Управление экономическими системами": электронный научный журнал. 2016. № 12 (94). С. 35., Россия.
7. James H. Stronge, Principal Evaluation: Standards, Rubrics, and Tools for Effective Performance, ISBN: 978-1-4166-1527-9, 2013.
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. Qarang: <https://lex.uz/docs/-5013007>
9. <http://vo.hse.ru>